



UDK:1:18:7.01

Firdavs ACHILOV,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Firdavs.99@mail.ru

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilikov taqrizi asosida

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARIDA VATANPARVARLIK MASALALARINING G'OYAVIY-MAFKURAVIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada Mahmudxo'ja Behbudi asarlarida vatanparvarlik masalalarining g'oyaviy-mafkuraviy asoslari muhokama etiladi. Mahmudxo'ja Behbudi, o'zbek xalqining o'zligini, madaniyatini, tarixini anglashni, ilm-fan va ma'rifatga e'tibor qaratishni yangi bosqichga ko'tarish zarurligini ta'kidlab, bu masalaga yuksak ma'naviyat va bilimni yoshlar tarbiyasining asosiy omili sifatida qarang. Mahmudxo'ja Behbudiyning bu boradagi g'oyalari bugungi kun zamonaviy yoshlarini ijtimoiy hayotda faol bo'lish, samarali va foydali faoliyatga yo'naltirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Yuksak ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, ma'naviy qiyofa, ma'naviy rivojlanish, globallashuv, ta'lim-tarbiya, tarix.

ИДЕЙНО-МИРОВОЕДЧЕСКАЯ ОСНОВА ПРОБЛЕМЫ ПАТРИОТИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИЙ

Аннотация

В статье рассматриваются идейно-идеологические основы патриотизма в творчестве Махмудходжи Бехбудий. Махмудходжа Бехбудий, подчеркивая необходимость повышения уровня самосознания, культуры, истории узбекского народа, уделения внимания науке и просветительству на новом уровне, рассматривал этот вопрос как ключевой фактор воспитания молодежи, высокой духовности и знаний. Идеи Махмудходжи Бехбудий в этом плане служат ключевым фактором ориентации современной молодежи на активность в общественной жизни, на продуктивную и полезную деятельность.

Ключевые слова: Высокая духовность, просвещение, культура, духовный облик, духовное развитие, глобализация, образование, история.

IDEOLOGICAL AND IDEOLOGICAL BASIS OF PATRIOTISM ISSUES IN THE WORKS OF MAHMUDKHOJA BEHBUDIY

Annotation

The article discusses the ideological and ideological foundations of patriotism in the works of Mahmudkhodja Behbudi. Mahmudkhodja Behbudi, emphasizing the need to raise the awareness of the identity, culture, history of the Uzbek people, and to pay attention to science and enlightenment to a new level, viewed this issue as a key factor in the upbringing of young people, high spirituality and knowledge. Mahmudkhodja Behbudi's ideas in this regard serve as a key factor in directing today's modern youth to be active in social life and to productive and useful activities.

Key words: High spirituality, enlightenment, culture, spiritual image, spiritual development, globalization, education, history.

Kirish. Mahmudxo'ja Behbudi milliy til masalasiga katta e'tibor qaratdi. Uning birgina "Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Ushbu jurnalda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga til-adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Shu jumladan, ayniqsa, til masalalari Mahmudxo'ja Behbudiyning diqqat markazida bo'lgan. Shu sababli Mahmudxo'ja Behbudi millatning taraqqiyoti uchun bir necha til bilishni shart deb hisoblagan. Masalan, jurnalning 1913-yil avgust, birinchi-nishona sonidayoq "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chop etilgan. Jurnalda bosilgan maqolalaridan biri, "Himmat va saboti bo'lmagan millatning haqqi hayoti yo'qdur", deb nomlangan. "Tushundigim zamon ko'nglum yonar, yig'lamoq istarman, ko'z yoshlarim kelmaydur", deb boshlanadi ushbu maqolada. "Har millat o'z tili ila faxr etar" maqolasida har bir millat o'z tilining muhofazasi bilan shug'ullanish shart, degan fikr juda ko'p dalillar bilan isbot qilib beriladi. "Agarda til va adabiyotimizni muhofaza qilmay, anga ajnabiy lug'at va so'zlarni qo'sha bersak, biroz zamonda til va millatimizni yo'qotamiz. Millatimizni yo'qotganda diyonatimiz o'z-o'zi ila albatta,

yo'qolur", deb yozadi muallif va "Bas, bizga tilimizni ajnabiy so'zlardan muhofaza qilmoqlik eng birinchi muhim bir vazifadur", deb xulosa chiqaradi. Ulug' ma'rifatchi tillarning bir-biridan o'rinli lug'at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilikning asosiy tamoyillaridan biri sifatida zamonaviy ta'limni joriy qilishga intilishni maqsad qildi. U maktablar ochib, milliy talimni rivojlantirishga katta e'tibor berdi [1]. U o'z asarlarida xalqni bilim olishga, yangi g'oyalarga ega bo'lishga chaqirar edi. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tarjuman" jurnalidagi maqolalari jadidchilik g'oyalarini targ'ib qilishga xizmat qildi. O'zining ijodida milliy madaniyatni rivojlantirish, xalq an'analarni asrab-avaylash va zamonaviy talablarga moslashtirishga harakat qildi. U o'zbek adabiyotida yangi janrlarni, xususan, dramaturgiyani rivojlantirdi. Mahmudxo'ja Behbudi jadidchilik harakatining siyosiy jihatlarni ham hisobga olib, mustaqillik va erkinlik uchun kurashishni maqsad qildi. U o'zbek xalqining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga intilishda faol bo'ldi. Uning asarlari va faoliyati xalqni oyatlatirishi, o'z milliy tillariga hurmat bilan qarashga va o'z qadiryatlarini asrab avaylashga chaqirdi [3].

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, Yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi, o'z davrining yirik siyosiy arbobi, ijtimoiy-siyosiy harakatlarining faol qatnashchisi, Mahmudxo'ja Behbudiyning ma'rifaparvarlik faoliyati bugun ko'pchilikka ibrat maktabini o'tashi shubhasiz. Turkiston jadidlarining yo'lbo'shchisi, birinchi dramaturg, munaqqid, teatrshunos, noshir va jurnalist, o'tkir publitsist Mahmudxo'ja Behbudiy "uyg'onish davri o'zbek adabiyotida birinchi o'rinni olurga loyiq zot" (Hoji Muin ibn Shukrullo) bo'lib, ezgu ishlari bilan bir umr millat qalbida qoldi. Bizga ma'lumki, Behbudiy o'z davrining faol publitsisti sifatida yozgan maqolalarida jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy muammolarni aks ettirish, ular orqali xalqni jaholatdan qutqazish uchun kurashgan. "Umuman, Behbudiyning publitsist sifatidagi faoliyati adib iste'dodining juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o'z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O'zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko'proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi... Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Uning Millat va Vatan taqdiri haqidagi barcha qarashlari, avvalo, mana shu maqolalarida aks etgan edi". Haqiqatan ham Behbudiyning ilmiy merosi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularning mazmunida o'z davri ma'rifati uchun, millatini baxtli va ozod ko'rishi uchun tinmay kurashganligi aks etganligini ko'ramiz. Masalan, ulardan biri "Yoshlarga murojaat" deb nomlangan bo'lib, "Oyna" jurnalining 1914 yil, 21-sonida chop etilgan. Hajman qisqa murojaatning muhim jihati shundaki, Behbudiy yoshlarni ilm olish, bilimlarni, tillarni egallashga, insonni kamolga yetkazuvchi islom dinini o'rganshga chaqiradi: "Tangrim ziyoda etsun! Va sizlarni ilmi zamoniy bilganingiz, albatta, naf kelturdi va alhamdulillah dini mubing'a ham yaxshi mu'taqidsiz va bu ilmiy zamoniy e'tiqodingizni buzmad". Fikrini isbotlash uchun Ovrupo ulamolarining musulmonlari holatini misol tariqasida keltiradi. Adib yoshlarga murojaat qilar ekan, publitsist bolalarni, avlodlarni din va millatga xizmat qilishi uchun o'qitish, ilmi zamoniyini o'rgatish zarurligini uqtiradi [4].

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda bugungi kunda ham tanqidga uchrab kelayotgan, xalqimizning urf-odatlar, to'y marosimlarga ortiqcha xarajatlar qilayotganligining samara bermasligidan o'sha paytlardayoq alloma ogohlantirganligini ushbu maqolada ko'ramiz: "Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek, siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumog'iga sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturg'on oqchalarni o'qumog' yo'lig'a sarf qilsangiz!". Ushbu mo'jaz maqola buyuk jadid ma'rifatparvarining xalqining kelajagini oldindan ko'ra bilganligidan dalolatdir. Behbudiy maqolalari ichida murojaat shaklida yozilganlari ikkita. Birinchi murojaat "Oyna" jurnalining 21-sonida chiqqan bo'lsa, ikkinchisi 41-sonida chop etilgan. Uning "Muhtaram yoshlarga murojaat" maqolasida maktab, maorif masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. "Behbudiy yashagan yillarda yo rus-tuzem maktablarida ta'lim olganlar yoki ruslar bilan savdo ishlarida ishtirok etganlar, yoxud boshqa biror bahonai sabab bilan rus tilini bilgan yoshlar paydo bo'la boshlagan edi. Behbudiy umid ko'zlarini ana shu yoshlarga va ularning boshqa tengdoshlariga qaratib", ushbu maqolasini yozadi. Jadid karvonboshisi haqiqatan ham Turkistonda madaniyat eshigini ochadigan g'ayratli yoshlarga, ularning yordamiga katta umid bilan qarashi maqolaning mazmun-mohiyatidan anglashilib turadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy maktab taraqqiyotning boshlanishi, madaniyat va saodatning darvozasi ekanligini ta'kidlar ekan, har bir millat, eng avvalo, maktab bilimlarini egallamas ekan, taraqqiyot yo'lga kira olmasligini uqtiradi. Zamonaviy madaniyatdan mahrum bo'lib, madaniyat, maorif, san'at bilan shug'ullanmagan millat dunyoda rohat va

saodatga erisholmaydi, oyoqlar ostida ezilib, hayot maydonida mag'lub bo'lib, bora-bora millati va diyonatini ham qo'ldan chiqaradi deb hisoblaydi. Behbudiy o'z fikrlarini isbotlash uchun maqolada qiyosiy usuldan foydalanadi, yer yuzidagi barcha millatlarning bu sohaga e'tiboriga diqqat qaratadi: "Binoan alay, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasiga va maktablarning har jihatdan intizom va akmoliga ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, o'zga millatlar diniy va milliy hissiyotga molik o'lub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yo'lda molu jonlarini fido etmoqga hozir turarlar". Jadid yo'lbo'shchisi o'z davridagi bu kamchiliklarni birma-bir ko'rsatib beradi, jaholat (johilonadan iboratdur), ilmsizlik (ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila yashab bo'lmas), taraqqiyotdan (chirik taassubotimizni asosidan qo'parub tashlaydur) orqada qolish. Bularga qarshi faqat ma'rifat, maorif bilan kurashish yo'llarini ham ko'rsatib beradi: ibtidoiy maktablarni ko'paytirish, muallimlarga ehtiyoj katta bo'lgani uchun "Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur". Buning uchun muallimlar yetishtirib chiqaradigan dorilmuallimin yo'qligini ham olim tanqid ostida olar ekan, uning ham chorasi borligini (Toshkandga Munavvarqori janoblarning maktabiga yubormoq kerakdur) ko'rsatadi. Maqolada yoshlarning e'tiborini jalb qilish va uning o'qishiligi oshirish uchun Behbudiy ritorik so'roqlardan foydalanadi: "Endi, bizni Turkistonda munda hissiyotlar qayda? ...Fazoili insoniyadan sanalgan shaylar qanday hosil bo'lur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz". Bu savollarni o'qigan kitobxon nafaqat yozilgan davri, balki bugungi kunda ham hushyor tortishi aniq. "Oyna" jurnalida (1914 yil) chop etilgan ushbu maqola maktab, maorif, ma'rifat masalalari dolzarb bo'lib turgan bir davrda yozilganligi, yoshlarni uyg'otiga da'vat etishi bilan ahamiyatlidir, shu bilan birga bugungi kunda ham ma'rifatni targ'ib etish nuqtai nazaridan eskirmaganligi ko'rinadi.

Behbudiy "usuli jaded" maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilish, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini Gaspirlidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda "usuli jaded" maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, u shu maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning Eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona, o'z hovlisida maktab ochdi. 1918 yilda Samarqandda "Musulmon ishchi va dehqon sho'rasi" tuzilganda Behbudiy maorif komissari etib tayinlanadi. Shunda u yangi maktablar tarmog'ini yanada kengaytiradi. O'quv rejaları tuzish, yangi darsliklar yaratish, o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar ochish kabi ishlarini rivojlantirib yuboradi. "Usuli jaded" maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Chor amaldorlari bu paytda Turkistondagi yangi usuldagi maktablarni biron ayb topib darhol bekittirib qo'yar edi. Chunki, podsho hukumati "begona xalq"ning qisman bo'lsa ham ilm-ma'rifatli bo'lishini, dunyoviy bilimlarni o'rganishini istamasdi. Yangi usul maktablarini faqat podsho hukumati emas, balki mahalliy ruhoniylar, eski maktabning domlari ham yoqtiymas edilar. Ular yangi usul maktablari "islom diniga rahna solidi", bu maktablarning muallimlari "kofir", deb tashviqot yuritir edilar. Mana shunday qarash va to'siqlarga qaramasdan Behbudiy va uning maslakdoshlari "usuli jaded" maktablarida Turkiston farzandlarini o'qitish ishlarini jadal suratda olib borardilar[5].

Mahmudxo'ja Behbudiyning "usuli jaded" maktabidagi o'qitish ishlari quyidagi tartibda olib borilar edi: "Maktab ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqich –

ibtidoiy qism, deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil. Birinchi yilida: forscha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Su'ralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq o'qimoqni to'liq o'rganganlar. Ikkinchi yilida: haftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan. Uchinchi yilida: Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy tillari puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan. To'rtinchi yilida: esa Kalom-u Sharif, mufasssal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisob, tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi. Maktabning ikkinchi bosqichi – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha: birinchi yili arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning "Guliston", turkiy tili o'qitilgan; ikkinchi yil – arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar; uchinchi yil – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix, turkiy til, rus tili ham o'qitilgan; to'rtinchi yil – arab tili, rus qozixona xatlari, bo'listnoyxona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy darslar o'qitilgan. Behbudiy maktabida har yilning oxirida tantnali imtihonlar o'tkazilib turilardi. Imtihonlarga, albatta, ota-onalar va boshqa mehmonlar ham taklif qilinardi. Bu birinchidan: "usuli jaded" maktablarini ko'proq targ'ib qilish va uning o'qish tartiblarini ko'rsatish bo'lsa; ikkinchidan: maktabni hayotiyroq qilish, ya'ni oila va maktab birligini amalga oshirish edi. Sakkiz sinf, ya'ni ikki bosqichni tamomlagan shogird arabcha, forscha va turkchada bimalol so'zlab yozardi. Ruschani ham o'qib, bimalol gaplasha olardi. Turkistonning boshqarma mahkamalarining barchasida ishlashga qurbi yetardi. Bu shogird maktabda muallimlik ham qila olar, tijorat bilan ham shug'ullanar, hatto, muharrirlik ham qo'lidani kelardi. Har yilgi imtihonlarga barcha joydagi vakillarga xat yuborilib taklif etilardi. Lekin ko'pchilik maktabning yutuqlarini ko'ra

olmaganidan kelmasdi. Behbudiy aytar ediki: "Kelib ko'rsunlar, durust bo'lsa, rivoj bersunlar, nodurust bo'lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo'qdur".

Behbudiy Turkistonning kelajagini uning yangi kadrlarida, mutaxassislarida va o'qimishli yoshlarida, deb bilardi. Shuning uchun ham u har bir yozgan maqolasida yangi taraqqiyotga javob beradigan kadr tarbiyalab yetishtirish masalasini qo'yardi. Savdo-sotiq ishlarini keng rivojlantirish, kassa ochib milliy daromadni ko'paytirish zarurligi haqida tushuntirishlar olib borardi: "Imorat qilmoqchi bo'lsak reja loyihasi lozimki, muhandislarga muhtoj bo'lurmiz. Ammo, biz hanuz muhandis ilmini bilmaymiz. Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa tuzib tijorat etmoq lozim?" degandi. Behbudiy Turkistonda yetishtirilayotgan mahsulotlar arzon baholarda Ovrupo bozorlariga olib ketilayotganidan achinadi. Bizda ham Ovrupo bozorlarida savdo-sotiq qiladigan mutaxassislarining yetishib chiqishlarini istaydi: "Turkiston mevasi... donasi, toshi, tufrog'i... va nemusalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dollari kelib oz bahoga olib ketar. Mehnatni biz qilarmiz, foydani ular ko'rar". Shuning uchun deydi, Behbudiy: "Ovrupa ila savdo qilaturgon kishi avvalo zamona ilmi o'qimog'i lozim. U millat taraqqiyotining ma'naviyati - ham tarbiyasi, ham iqtisodi, ham ma'rifati" deb qaradi.

Behbudiy Turkistonning kelajagini o'ylar ekan, millatimizning taraqqiyoti borasida turli yo'llarni qidirdi. Boylarga ham murojaat etdi: "Boshqa millatlarning boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soldururlar, faqir va yetimlarning o'qimog'i uchun voqf (stipendiyalar) tayin qilar. Butun Turkiston o'n boy elinda ming so'mdan bersa, 25 bola uchun Toshkentda (diniy va zamonaviy) bir pansiunli va nahorli mukammal maktab bino bo'lur, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyorlaydur". Agar shunday bo'lsaki, o'n yillar orasida bizda yaxshi-yaxshi o'qimishli muhandis, shifokor, huquqshunos, iqtisodchi kabi mutaxassislar yetishib chiqardi, deb umid qiladi.

Xulosa. Behbudiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini o'rganib, boy ilmiy merosi bilan yaqindan tanishar ekanmiz, uning butun fikri-zikri xalqini jaholatdan qutqarishga qaratilganligi, ma'rifat, ma'naviyat nurlarini sochish orqali ozodlikka erishish mumkinligini targ'ib qilish bilan band bo'lganligini ko'ramiz. Buyuk millat yashar ekan, ulug' ajdodimizning xotirasi ham o'chmaydi deb ishonamiz.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. – "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" // 1990-yil 1926-yanvar.
4. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy. – T., 2010.
5. Qosimov B. Behbudiy – Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2006.
6. Abdurashidov Z. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning "Oyina" jurnali. – T.: Muharrir, 2019.
7. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – T.: Akademiya, 1999.